

ONA TILI MAKTAB DARSLIKLARIDA STILISTIKAGA DOIR BILIMLARNING BERILISHI

Axtamova Mukarram
SamDU Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada Ona tili maktab darsliklarida stilistikaga doir lingvistik bilimlarning berilishi ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, ona tili darsligidagi ushbu mavzularga doir mashq va topshiriqlarning mazmun va mohiyati haqida tushunchalar beriladi. Nutq uslublarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Stilistika, uslubiyat, darslik, nutqiy uslub, mashq va topshiriqlar, rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub, so‘zlashuv uslubi, publitsistik uslub.

Stilistika-grekcha “stylos” so‘zidan olingan bo‘lib, “suyakdan qilingan uchli tayoqcha” degan ma‘noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtachaga bilan yozar edilar. Bu tayoqchanning tepa tomoni kurakchaga o‘xshar edi. Xato yozilgan so‘zni tayoqchanning kurakchaga o‘xshagan tomoni bilan taxtachadagi mumni tekislash orqali o‘chirar edilar va uchli tomoni bilan to‘g‘irlab yozardilar. Stil so‘zidan stilet – ingichka xanjar va stilo – avtoruchka so‘zlari kelib chiqqan. Qadimda stil so‘zi “bo‘g‘in, nutq tili” ma‘nosida qo‘llana boshlangan. Goratsiyning “Agar sen o‘qish uchun loyiq narsa yozmoqchi bo‘lsang, stilingni tez-tez almashtirib tur” degan ifodasi keyinchalik greklarda maqolga aylanib ketgan. Demak odamlarning ko‘ngliga urmaydigan, foydali ma‘lumot beradigan biror narsa yozish uchun stilni tez-tez almashtirib turish kerak.

Ma‘lumki, stilistika ikki ko‘rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik va badiiy stil kiradi.
2. Lingvistik, ya‘ni til stilistikasi. Uning turlari: a) fonetik stilistika; b) leksik stilistika; d) grammatik stilistika.

Uslubiyatni o'quvchiga o'rgatish orqali ularda muloqot madaniyatini shakllantirishimiz mumkin. Har bir nutq uslubidan bir narsa o'rgansa, ham ularni umumlashtirsa yaxlit bir tizimga kelgan nutq uslubi kelib chiqadi. Shuning uchun ham nutq uslublarini yoshlikdan o'quvchilarga o'rgatib boorish maqsadga muvofiqdir. Chunki, har bir inson uchun juda kerakli bo'lgan ma'lumotlar beriladi. Nutq madaniyatini o'rgangan o'quvchi to'g'ri so'zlaydi, har qaysi so'zni o'rnida va keraklisini topib so'zlaydigan bo'ladi. Nutq uslublarini o'qitish orqali o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun yurtimizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, hozirgi kundagi darsliklarni olib qaraydigan bo'lsak, oldingi darsliklardagidek qoidalarga emas, ko'proq inson hayoti davomida kerak bo'ladigan narsalar kiritilyapti. Jumladan, bugungi kundagi, Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov va Saodat Atoyeva tomonidan tuzilgan Yangi avlod 10-sinf darsligida aynan tilshunoslikning "Stilistika" sohasiga oid bilimlarning keng yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. 10-sinf Ona tili darsligi jami 65 ta darsni o'z ichiga oladi, shulardan o'quvchiga 20 dars stilistika sohasiga oid lingvistik bilimlar beriladi. Masalan, 10-sinf ona tili darsligiga kirar ekanmiz, 1-darsda nutq uslublari haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. 2-darsda o'quvchilarga nutq uslublaridan aynan rasmiy uslub haqida to'liqroq ma'lumot berilib, va bu bo'yicha ma'lumotnoma qay tartibda yozilishi o'rgatilgan. Biz 3-darsimizda Ilmiy va Badiiy uslub haqida mustahkam lingvistik bilimlarning berilishi va bu borada topshiriqlarning mukammalligini kuzatishimiz mumkin. 4-darsga kelib sinonimlar uslubiyati haqida lingvistik bilimlarni berilgan. Keyingi darslarimizda, antonimlar uslubiyati, inkor shakllari uslubiyati, olmoshlarning uslubiy imkoniyatlari, qo'shma gaplar uslubiyati, so'z yasovchi qo'shimchalar uslubiyati, shevaga xos so'zlar uslubiyati, zamon qo'shimchalari uslubiyati hamda ma'nodosh so'zlar uslubiyati kabi uslubiyatning bir necha sohalariga oid lingvistik bilimlarning berilishini kuzatamiz. Stilistikaga doir lingvistik bilimlar darslikda o'quvchiga tushunarli qilib yoritilib berilgan. Mavzuni tushunib, uni mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlar va topshiriqlarning berilishi nur ustiga a'lo nur. Darslikda keltirilgan matnlarning nutqiy va lingvistik mavzular

bo'yicha ishlanishi, o'quvchining ham nutqiy, ham lingvistik bilimlarning oshib borishini taminlaydi. Stilistika ya'ni uslubiyatning aynan 10-sinf darsligida berilishi, o'quvchining so'zlashuv jarayonida yuzaga keladigan muammolarini tuzatish, uni muloqot madaniyati borasidagi bilimlarini oshirish uchun berilgan. Nutq uslublari aynan o'quvchuvchiga nimani o'rgatadi?

Biz bilamizki, nutq uslublari ma'lum bir vaziyatda foydalanadigan nutq shakllari yig'indisidir. O'zbek tilida nutq uslublari 5ta (so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, badiiy, publitsistik uslub).

Shulardan birinchisi, so'zlashuv uslubi bu uslubning boshqa nutq uslublaridan farqi, uning adabiy va oddiy shakli bor. Ular ham o'z ichida turli guruhlarga bo'linadi. adabiy so'zlashuv uslubi, oddiy so'zlashuv uslubi. Adabiy so'zlashuv uslubi O'zbekistonning barcha hududlarida umumiy tushuniladigan uslub. Oddiy so'zlashuv uslubi oddiy xalq tili, turli hududlarida aholi so'zlarni o'zlarining shevalarda, lahjalarda ishlatadi. Yana bu uslubda turli xil ismlarni qisqartirib aytsa ham bo'ladi (Muhlisa-Mutti). Rasmiy so'zlashuv uslubining ham 2 xil ko'rinishi berilgan: og'zaki va yozma. Bu boshqa nutq uslublarida uchramaydi. Mazkur uslubning farqi ko'proq rasmiy doiralarda yig'ilishlar, majlislarda, xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvda ishlatiladi. Ilmiy uslub ko'proq adabiy til qoidalariga amal qiladi. Bunda ko'proq ilmiylikka asoslaniladi. Ilmiy uslubni yana fan uslubi ham deyish mumkin. Badiiy uslub qo'llanish doirasi kengligi bilan ajralib turadi. U barcha uslublardan kengroq ma'lumotlar zahirasiga ega. Bu uslub erkin uslubdir. Yozuvchi va shoirlar tafakkuridagi barcha narsalari o'z ichiga oladi. Adiblarimiz bu usubda xohlagancha ijod qilib, asarlarini yozishadi. o'y-fikrlarini erkin tarzda o'quvchi-kitobxonlarga yetkazib berishi bilan ajralib turadi. Publitsistik uslub. Bu uslub qadimda ham qo'llanilgan. Gazeta va jurnallar shu uslubda beriladi. Televideniye va radiolarda ham shu uslubdan foydalaniladi. Biz mazkur ma'lumotlarni bayon qilgan holda, uslubiyat mavzusining ikki darslik, ya'ni 2017- va 2022-yilda nashrdan chiqarilgan ona tili maktab darsliklarida yoritilishini tahlilga tortdik.

2017-yildagi o‘quv darsligi 31 ta darsni o‘z ichiga oladi. Butun boshli kitobda uslubiyat yoritilgan va o‘quvchiga to‘liq qoidalar asosida mashqlar taqdim

etilgan. 2022-yilgi yangi avlod darsligida esa mashqlar va turli xildagi qiziqarli topshiriqlar keltirilgan. O‘quvchi topshiriqni bajarish jarayonida mavzuni mukammal va yanada aniq tushunib oladi. Masalan, ikki darslikda ham keltirilgan nutq uslublari mavzusini yoritilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2017-yil darslikda ushbu mavzuning yoritilishi quyidagicha berilgan:

Mavzu nomi: Nutqiy uslublarning turlari

1-topshirig‘ida qaror qilindi, belgilansin, kelishik shakllari, nurning sinishi, bamisli, ruxsor, jilvalanmoq, siyosiy vaziyat, iqtisodiy taraqqiyot kabi so‘z va iboralar ishtirokida gaplar tuzish va ularni uslubiy belgilarini tushuntirib berish o‘quvchidan talab qilinadi.

2-topshiriqda gaplar berilgan. O‘quvchilar ushbu gaplardagi uslubiy xoslangan so‘zni topishlari kerak. Bilamizki, topshiriqlar o‘tilgan mavzularni takrorlashga qaratilgan. Bu ikki topshiriqdan so‘ng o‘quvchiga mashqlar beriladi. Darslikning 18-mashqida matn berilgan. O‘quvchilar ushbu matn qaysi uslubda yozilganligini aniqlashlari kerak:

“Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. Modasi yirik, gavdasining uzunligi 49 sm gacha, qanotlari yoyilganida 115 sm gacha, vazni 1, 2 kggacha. Nari modasidan ancha kichik. Keng tarqalgan, O‘rta Osiyoda sahro lochini va tundra lochini uchraydi. Sahro lochini o‘troq yashaydi; tundra lochini faqat qishlash uchun uchib keladi. Uyasini to‘g‘lik va jarli joylarga quradi. Aprel-mayda 2-3 ta tuxum qo‘yadi. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi (“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”).

19-mashqda o‘quvchilarni 3 guruhga bo‘lib ularga “Qo‘lni qo‘lga beraylik”, “Qonun ustuvorligi yo‘lida”, “Bugunning nafasi” mavzulariga oid matn tuzishlari va matnida keltirilgan publitsistik uslubga xos xususiyatlarini aniqlab berish vazifa qilib berilgan.

Darsligikning 20-mashqida o‘quvchilardan “deyiladi, ataladi, zarur, ayniyat, kun tartibi, qatnashdilar, buyuraman, tashkil etilsin, munozara uchun mavzu, so‘ragan ekansiz, davra suhbat, jilva qildi, ochun, ko‘klam, kuzak” so‘zlar ishtirokida gaplar tuzishi va mazkur so‘zlarning uslubni shakllantirishdagi o‘rnini tushuntirib berishlari talab qilingan. Dars so‘ngida, o‘tilgan mavzu yuzasidan savollar keltirilgan. Ushbu savollar quyidagilar:

1. Rasmiy uslub deb nimaga aytiladi?
2. Badiiy uslubga xos belgilarni ayting.
3. Ilmiy uslubga xos belgilarni sanang.
4. Publitsistik uslubning asosiy belgilari qaysilar?

Uyga vazifa 21-mashq. Bunda o‘quvchilar “Turkiston” gazetasi yoki “Yosh kuch” jurnalidan publitsistik uslubda yozilgan maqolalarni daftarlariga yozib kelishlari kerak.

2022-yilgi yangi nashrdagi darsligida ushbu mavzu qanday yoritilganligini kuzatar ekanmiz, 2017-yilgi nashrdan tubdan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Darslik dizayn jihatidan, mashq va topshiriqlarning hilma-xilligi jihatdan, lingvistik bilimlarning yoritilishi va ularni mustahkamlashga yordam beruvchi qiziqarli va o‘quvchini topqirlikka, mulohazaga chorlovchi savol va topshiriqlarning berilishi o‘quvchilarni o‘ziga ipsiz bog‘lab oladi. Darslikda 2018-yildagi nashridan farqini kuzatar ekanmiz, “Nutq uslublari” mavzusi yoritilgan birinchi darsga e‘tiborimizni qaratamiz:

1-dars

Topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering va matn bilan tanishib chiqing.

1. Siz muhabbatni qanday tushunasiz?
2. Bu so‘zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?
3. O‘zi muhabbatga ishonasizmi? Muhabbat nima?

Muhabbatni oshiqalar umr mazmuni deb biladilar. Ayrimlar uchun u azob, biroq totli azob. Vafo ko‘rmaganlar; “Muhabbat yo‘q narsa ekan”, “Muhabbatga ishonmayman”, – deb yozg‘irib ham qo‘yishadi. Bundan bilinadiki, turli taqdir

sohiblari har xil ta'rif berishar ekan. Biroq adabiyot sahifalarini varaqlar ekanmiz, bir narsaga amin bo'lamiz, oshiq uchun muhabbat mangu bor, ba'zan yor bevafo yoki berahm bo'lishi mumkin xolos.

Muhabbatni "Sevib qoldim", "Ko'nglimda muhabbat uyg'ondi", "Ishqim tushdi" kabi jumlar bilan izhor qiladilar. Biroq sevgi, muhabbat, ishq deganlari bir narsamikan? Ingliz tilida "Love", nemischada "Liebe", lotinchada "Amor" ruschada "ЛЮБОВЬ" deb nomlanadigan tuyg'uga nisbatan o'zbek tilida sevgi, muhabbat, ishq so'zlari qo'llanadi. Biroq bu so'zlar ayrim jihatlari bilan o'zaro farqlanar ekan. Bundan tashqari, maqoladan parcha berilib, ushbu matn asosida topshiriqlar berilganligi o'quvchini ushbu mavzu haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu ma'lumotlarni o'quvchiga berishimiz orqali, ularning muloqot jarayonidagi xato va kamchiliklarini to'g'irlashga yordam beramiz. Bundan tashqari, darslikda berilgan topshiriq va matnlar stlistikaga oid lingvistik bilimlarni tushunarli qilib yoritilishi uchun asosiy yordamchi vazifasini bajargan.

10-sinf ona tili maktab darsligida yoritilgan uslubiyat bo'limining davomi sifatida 11-sinf ona tili darsligini olishimiz mumkin. 2017-yilgi 10-sinf va 2018-yilgi 11-sinf ona tili darsligida ham, 2022-yilgi 10-sinf va 2018-sinf ona tili darsligida ham uslubiyat bo'limi qoidalarining berilishi bir xil, ammo ularni o'quvchiga tushunarli qilib yoritilishida mashq va topshiriqlarning o'rni beqiyos ekanligini kuzatamiz. Kuzatishlarimiz natijasida, 11-sinf ona tili darsligida, bu bo'lim o'quvchilarga nutq madaniyati va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar, nutqning tirikligi, yozma nutqning to'g'riligi va me'yori, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliqi, mantiqiylik va grammatik vositalar, mantiqiylik, matn kompozitsiyasi, nutqning sofligi va nutqning boyligi, nutqning jo'yaliligi, evfemizm va disfemizmlar, olmoshlar uslubiyati, maqolni o'rinli qo'llash, tasviriy ifoda - ko'tarinki nutq vositasi va madaniy nutqning grammatik va punktuatsion me'yorlari kabi mavzular orqali to'laqonli yoritilib berilgan.

Xulosa. Nutq uslublarini o'qitish orqali o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish bilan birgalikda, shu o'zbek tilida gaplashuvchi har bir shaxs shu tilning o'z ichki imkoniyatlaridan o'rinli va to'g'ri qo'llay bilishini o'rgatishimiz zarur va shart hisoblanadi. Bu usublar orqali har bir o'zlashtirishi uni har bir joyda to'g'ri qo'llay bilishini o'rganadi. Muloqot madaniyati orqali atrofdagilar bilan munosabatga kirishganda har bir so'zni o'z o'rnida ishlata oladigan shaxs bo'lib rivojlanadi. Ko'chada, uyda ishxonada, jamoat joylarida insonlar bilan qanday so'zlashishni oldindan biladi. Shuning uchun ham nutq uslublarini yoshlikdan o'quvchilarga o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga har kungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy, huquqiy, ilmiy muloqotlardan foydalanilayotgan so'zlar, iboralarning ishlatish doirasi o'zgarib borayotgan bir kunda uni to'g'ri qo'llay olishga o'rgatishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
2. Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K., Siddiqov M., Atoyeva S. Ona tili 10-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2022.
3. Mamadaliyev N., Mahmudov, Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili 11-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Toshkent-2018.
4. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova M. Ona tili 11-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2020.